

## AYOLLAR REPRODUKTIV TIZIMINI SARATONINING OLDINI OLISH VA ERTA DIAGNOSTIKASI

Anvarova Rayyona Nodirbek qizi

Kokand university Andijon filiali

Davolash yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Tillaeva Xamro Xudayberdievna

Ilmiy rahbar: [rayyonaanvarova06@gmail.com](mailto:rayyonaanvarova06@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ayollar reproduktiv tizimi saratonlari, jumladan, bachadon bo'yni, tuxumdonlar, bachadon, va vaginaning saratonlari, butun dunyo bo'ylab ayollar orasida eng yuqori o'lim sabablari qatoriga kiradi. Ushbu maqola ayollar reproduktiv tizimi saratonining oldini olish va erta diagnostikasi haqidagi zamonaviy yondashuvlarni, diagnostika usullarini, va sarattonni erta aniqlashning ahamiyatini muhokama qiladi. Sarattonning rivojlanishini kechiktiradigan profilaktik choralar, shuningdek, zamonaviy tibbiy tekshiruvlar va skrining dasturlari haqida batafsil ma'lumot beriladi. Maqola shuningdek, sarattonni aniqlashda innovatsion metodlarni va yangi diagnostika usullarini ko'rib chiqadi, bu esa ayollar uchun salomatlikni saqlashda katta ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** ayollar reproduktiv tizimi, saraton, erta diagnostika, profilaktika, ginekologik saratonlar, kolposkopiya, HPV vaksinasiyasi, skrining, innovatsion diagnostika, gormonal disfunktsiyalar, reproduktiv salomatlik.

**Abstract:** Reproductive system cancers in women, including cervical, ovarian, uterine, and vaginal cancers, are leading causes of mortality worldwide. This article discusses modern approaches to the prevention and early diagnosis of reproductive system cancers in women. It highlights the importance of early detection and the role of screening programs and diagnostic methods in reducing cancer mortality. The article also provides insights into innovative diagnostic techniques and preventive strategies that contribute to the early identification of these cancers, which can greatly improve health outcomes. Preventive measures, such as regular screenings and vaccination, are emphasized as vital tools in protecting women's reproductive health.

**Keywords:** women's reproductive system, cancer, early diagnosis, prevention, gynecological cancers, colposcopy, HPV vaccination, screening, innovative diagnostics, hormonal dysfunction, reproductive health.

Reproduktiv salomatlik — bu reproduktiv tizim va uning faoliyatiga bog'liq barcha masalalar borasida faqat kasallik va kamchiliklar yo'qligi bo'libgina qolmay, balki to'liq jismoniy, aqliy va ijtimoiy muvaffaqiyatlar holati hamdir. Reproduktiv salomatlik masalasi faqatgina tug'ruqlar oralig'i uch yildan kam bo'lmasligiga e'tibor qaratishdangina iborat emas. Balki u o'z ichiga kengroq vazifalarni qamrab oladi. Bunda assosiylar e'tibor oila farovonligini ta'minlash, ularda ijobjiy psixologik iqlimning hukm surishi, onalar va bolalar salomatligini saqlash, oilalarning tom ma'noda

mustahkamligini ta'minlash kabilar nazarda tutiladi. Albatta 16-17 yoshlardagi qiz bola organizmi hali to'la etilgan bo'lmaydi. Erta farzand ko'rish yosh ona salomatligiga ham, undan tug'ilajak bola salomatligiga ham ma'lum darajada xavf tug'dirishi mumkin.[3]

Bo'lajak onalar bo'l mish qizlarimizning reproduktiv salomatliklarini muhofaza qilishni oilada, jamoatchilikda va barcha ta'lim muassasalarida keng ko'lamda amalga oshirish kerak. Albatta davlatimiz tomonidan yurtimizda bo'lajak onalarning salomatligini muhofaza qilish bo'yicha keng ko'lamda ishlar amalga oshirilmoqda. O'g'il-qizlarning salomatligi uchun maktablarda, barcha ta'lim muassasalarida targ'ibot-tashviqot ishlari olib boriladi, tibbiy ko'riklardan o'tkaziladi. Hozirgi jadallahsgan zamonamizda kelajak avlodning etarli darajada salomat bo'lishi, millatning genetikasi, nasli sog'lom bo'lishi dolzarb muammolardandir.

O'spirinlik – nozik davr. Ayniqsa, ota-onalar va pedagoglar bu davrda bolalar bilan o'zaro munosabatda do'stona yo'l tutishlari kerak. Bu davrda o'spirin qizlar jadal o'sgani bois ularning organizmida turli xil a'zolarning muvozanati buziladi. Qiz bolalar reproduktiv salomatliklarining shakllanishida jismoniy va psixologik sog'lom bo'lishi masalalariga e'tiborni qaratish va bu yo'ldagi ishlarni ko'paytirish tajribasi ijobjiy natijalar berishi aniqlangan.

Qiz bolalarda reproduktiv salomatlikning shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi xavfli omillar qatorida ichki sekretsiya bezlari va moddalar almashinuv jarayonlarining buzilishi, vaqtida ovqatlanmaslik, vegetativ asab tizimi kasalliklari, allergik kasalliklardir. Ushbu kasalliklarning natijasida, qizlarda tez-tez charchash, holsizlik, kamqonlik, tezda asabiyashish, yig'loqilik, quvvatning kamligi h.k. yuzaga keladi. Ularning oldini olishda oila va tibbiy xodimlar, pedagoglar tomonidan maqsadga qarab yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligini ukdirib o'tish joizdir. Qiz bola organizmiga bulardan tashqari tamaki chekish, spirtli ichimliklar ichish, giyohvandlik kabi zararli odatlar o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Ko'rsatib o'tilgan xavf omillar keyinchalik ularda homiladorlikning fiziologik kechishiga to'siq bo'lib, turli xil patologik tug'ruqlarga sabab bo'ladi. [2]

Yuqorida aytib o'tganimizdek, reproduktiv salomatlik faqatgina tug'ruqlar oralig'i uch yildan kam bo'lmasligi masalasidan iborat emas. Yoshlarimizning, shuningdek tug'ruq yoshidagi ayol-qizlarimizning reproduktiv salomatliklari uchun amalga oshiriladigan barcha chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Ayollarimizning salomat bo'lishi, millatning nasli jismoniy va ruhiy sog'lom bo'lishi, aynan reproduktiv salomatlik yo'lida amalga oshirilayotgan ishlarga ham bog'liqdir. Bu birgina davlatning vazifasagina bo'lmay, balki har bir ota-onaning, jamiyat a'zosining ham ma'suliyatidir. Har birimiz oilamizda, farzandlarimizning, yaqinlarimizning, shuningdek o'zimizning salomatligimizga e'tibori bo'lsak, bu yo'lda kerakli chora-tadbirlarni qilsak, bizdan keyingi millatning sog'lom bo'lishiga qo'shgan katta hissamiz bo'ladi. Ayollar reproduktiv tizimi saratonlari, shubhasiz, dunyo bo'ylab ayollarining salomatligiga katta xavf solmoqda. Bachodon bo'yni saratoni, tuxumdonlar saratoni, bachodon saratoni va boshqa reproduktiv tizim saratonlari nafaqat reproduktiv salomatlikni xavf ostiga qo'yadi, balki ayollar hayoti

uchun ham jiddiy tahdid soladi. Ularning oldini olish va erta diagnostikasi, ayniqsa, 21-asrda ahamiyat kasb etmoqda. Erta aniqlash va profilaktika metodlari orqali saratonni davolash imkoniyatlari yanada kengayadi va umr ko'rish davomiyligini sezilarli darajada oshiradi.

Saratonning turlari va ularning tashxisi:  
Ayollar reproduktiv tizimi saratonlari bir nechta turga bo'linadi, har birining o'ziga xos diagnostika va davolash usullari mavjud. Quyida ayollarda eng keng tarqalgan reproduktiv tizim saratonlariga qisqacha to'xtalamiz:

1. Bachadon bo'yni saratoni: Bachadon bo'yni saratoni, odatda, HPV (insonga papilloma virusi) infeksiyasi natijasida rivojlanadi. HPV vaksinasiyasi bu kasallikning oldini olishda eng samarali usul hisoblanadi. Bachadon bo'yni saratonining erta bosqichlarini aniqlash uchun Pap-smear testi va kolposkopiya yordamida ginekologik ko'rikdan o'tish tavsiya etiladi. Kolposkopiya – bachadon bo'ynining kengaytirilgan tasvirini olish imkonini beradi, bu esa saratonning mavjudligini erta aniqlashga yordam beradi.

2. Tuxumdonlar saratoni: Tuxumdonlar saratoni o'zining bosqichlarida belgilarsiz bo'lishi mumkin, shuning uchun erta aniqlash juda muhimdir. Ultratovush tekshiruvi, CT (kompyuter tomografiya) va MRI (magnet-rezonans tomografiya) kabi usullar yordamida tuxumdonlar saratonining rivojlanishini kuzatish mumkin. Tuxumdonlar saratoni uchun maxsus biomarkerlar (CA-125 kabi) ishlatiladi, ular saratonni aniqlashda yordam beradi.

3. Bachadon saratoni: Bachadon saratoni odatda gormonal omillar bilan bog'liq bo'lib, asosan menopauza yoki menopauza davrida yuzaga keladi. Bachadon saratonini aniqlash uchun ultratovush tekshiruvlari, biopsiya va ginekologik ko'riklar amalga oshiriladi. Bachadon saratonining erta bosqichlari ko'pincha belgilarsiz bo'lishi mumkin, shuning uchun muntazam tekshiruvlar kerak.

4. Vaginal saraton: Vaginal saraton kamroq uchraydi, ammo bu ham ayollar reproduktiv tizimining jiddiy kasalligi hisoblanadi. Vaginal saratonning erta bosqichlarini aniqlashda ginekologik tekshiruvlar va biopsiya samarali vositalardir[4]

Bu kasallikkarni profilaktika va oldini olish: Saratonni erta aniqlashda profilaktik choralar va texnologiyalardan to'g'ri foydalanish juda muhim. Quyidagi profilaktik choralar ayollar salomatligini saqlashda muhim rol o'yndaydi:

1. HPV vaksinatsiyasi: HPV vaksinatsiyasi bachadon bo'yni saratonining oldini olishda eng samarali va ilg'or profilaktika choralaridan biridir. HPV infeksiyasi ko'pincha bachadon bo'yni saratoniga olib kelishi mumkin, shuning uchun HPVga qarshi vaksina olish tavsiya etiladi, ayniqsa, yosh ayollar uchun.[1]

HPV (Human Papillomavirus) Nima? HPV (Inson papilloma virusi) — bu jinsiy yo'l bilan yuqadigan eng keng tarqalgan virus bo'lib, 100 dan ortiq turini o'z ichiga oladi. HPV ba'zi turlari jiddiy sog'liq muammolariga olib kelishi mumkin, xususan, reproduktiv tizim saratonlari, jumladan, bachadon bo'yni, tuxumdonlar, anal, og'iz bo'shlig'i va vaginaning saratonlariga. HPV virusining ba'zi turlari, ayniqsa HPV-16 va HPV-18,

bachadon bo'yni saratonining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. HPV Vaksinasiyasining Maqsadi HPV vaksinasiyasining asosiy maqsadi HPV infektsiyasini oldini olishdir. Vaksina bachadon bo'yni saratonining oldini olish uchun juda muhim vosita bo'lib, shu bilan birga boshqa HPV bilan bog'liq saratonlarning ham oldini olishga yordam beradi. HPV vaksinasiyasi, shuningdek, jinsiy yo'l bilan yuqadigan boshqa kasalliklarning, masalan, genital siğillar va anal saratonining rivojlanishiga qarshi himoya qilishga yordam beradi. HPV Vaksinasiyasi Qanday Ishlaydi? HPV vaksinasiyasi organizmni HPV virusiga qarshi immun tizimi orqali himoya qilishga yordam beradi. Vaksina organizmni HPV virusiga "o'rgatadi", shunda kelajakda HPV infektsiyasiga uchraganda, organizm bu virusga qarshi immun javob berishi mumkin. Vaksina, odatda, bir necha dozada yuboriladi va u HPV infektsiyasiga qarshi samarali himoya hosil qiladi.

2. Muntazam ginekologik tekshiruvlar: Ginekologik tekshiruvlar, jumladan, Pap-smear testi, kolposkopiya, va ultratovush tekshiruvlari, reproduktiv tizim saratonini erta bosqichda aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Bu usullar saratonning dastlabki belgilarini ko'rsatishi mumkin, bu esa davolashning samarali bo'lishi uchun imkoniyat yaratadi.

3. Skrining dasturlari: Skrining dasturlari, masalan, Bachadon bo'yni saratoni uchun Pap-smear testi, ayollarga reproduktiv tizim saratonlarini erta bosqichda aniqlashga yordam beradi. Skrining dasturlarining samaradorligi kasallikning o'z vaqtida aniqlanishiga va davolashga olib keladi.

4. Biomarkerlar va genetik testlar: Ayollarda saraton xavfini aniqlash uchun biomarkerlar (masalan, CA-125, CEA) va genetik testlar (masalan, BRCA-1, BRCA-2) foydalilanildi. Genetik testlar ayollarda tuxumdonlar saratoni yoki bachadon bo'yni saratoni xavfini aniqlashda samarali bo'lishi mumkin.[1]

Bu tizim bo'yicha innovatsion yondashuvlar va texnologiyalar:

1. Nanoskopiya va molekulyar diagnostika: Nanoskopiya va boshqa yuqori aniqlikdagi tasvirlash texnologiyalari yordamida saratonning erta bosqichlarini aniqlash mumkin. Molekulyar diagnostika esa saratonni yanada chuqurroq tahlil qilish va maqsadli davolashni amalga oshirish imkonini beradi.

2. Biomarkerlar va sirkulyatsiyalangan tumur DNT: Biomarkerlar, jumladan, sirkulyatsiyalangan tumur DNT, saratonning erta bosqichlarini aniqlashda samarali yordamchi vosita hisoblanadi. Bu metodlar, ayniqsa, saratonning ilgari sezilmagan holatlarida foydalidir.

3. Immunoterapiya: Saratonni davolashda immunoterapiya metodlari ham samarali bo'lib, u bemor organizmida saraton hujayralariga qarshi immun javobni faollashtirishga yordam beradi.[5]

### Xulosa

Ayollar reproduktiv tizimi saratonlari – bu jiddiy kasalliklar bo'lib, ularning oldini olish va erta diagnostika qilish samarali davolash imkoniyatlarini taqdim etadi. HPV vaksinasiyasi, muntazam ginekologik tekshiruvlar, biomarkerlar va genetik testlar yordamida saratonni erta aniqlash, shu bilan birga innovatsion yondashuvlar saratonning

samarali davolash imkoniyatlarini oshiradi. Ayollar reproduktiv salomatligini saqlashda profilaktik choralar va texnologiyalar muhim rol o‘ynaydi, bu esa hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Murodova, Z. (2020). "Ayollar Reproduktiv Tizimi Saratonlarining Profilaktikasi va Erta Diagnostikasi." O‘zbekiston Tibbiyot Jurnalı, 45(3), 102-107.
2. Azimov, T., & Rakhmonov, A. (2019). "Reproduktiv tizim saratonlarining erta diagnostikasi va profilaktikasi bo‘yicha ilmiy yondashuvlar." O‘zbekiston Tibbiyot Akademiyasi Xabarlar, 35(1), 89-94.
3. Arbyn, M., Anttila, A., Jordan, J., et al. (2012). "European guidelines for quality assurance in cervical cancer screening." European Journal of Cancer, 48(11), 1854-1867. <https://doi.org/10.1016/j.ejca.2012.07.004>
4. Saslow, D., Solomon, D., Lawson, H. W., et al. (2012). "American Cancer Society, American Society for Colposcopy and Cervical Pathology, and American Society for Clinical Pathology screening guidelines for the prevention and early detection of cervical cancer." CA: A Cancer Journal for Clinicians, 62(3), 147-172. <https://doi.org/10.3322/caac.21139>
5. World Health Organization (2020). "Cervical cancer prevention and control." WHO Technical Report Series, 1013, 1-40. Available at: <https://www.who.int/publications/i/item/9789241209624a>